

PLAGIAT: ILMIY HALOLLIK

Tojiddinova Dildora Bohodirjon qizi

Namangan davlat universiteti

magistranti

Email:

tojiddinovadildora20@gmail.com

UO'K: 378.147

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotlarda plagiat masalasi, uning mohiyati, turlari hamda ilmiy halollikka ta'siri keng yoritilgan. Muallif plagiatning nafaqat axloqiy, balki huquqiy jihatdan ham jiddiy muammo ekanini ta'kidlaydi. Maqolada oliy ta'lim tizimida plagiatga qarshi kurashish choralari, antiplagiat dasturlarining ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, tadqiqotchilarning ilmiy madaniyatini shakllantirish, manbalardan to'g'ri foydalanish hamda ilmiy halollik tamoyillariga amal qilish zarurligi asoslab berilgan.

Maqola yosh tadqiqotchilar, talabalar va ilmiy xodimlar uchun ilmiy ishlar sifati va ishonchliligini oshirishda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: plagiat, ilmiy halollik, mualliflik huquqi, antiplagiat tizimi, tadqiqot, axloqiy me'yorlar.

Тоджиддинова Дилдора Боходиржон кизиМагистрант Наманганского государственного
университета

ПЛАГИАТ: НАУЧНАЯ ЧЕСТНОСТЬ

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается проблема плагиата в научных исследованиях, его сущность, виды и влияние на научную добросовестность. Автор подчеркивает, что плагиат представляет собой

серьезную проблему не только с этической, но и с правовой точки зрения. В статье представлена информация о мерах борьбы с плагиатом в системе высшего образования, о важности антиплагиатных программ. Обосновывается необходимость формирования научной культуры исследователей, правильного использования источников и соблюдения принципов научной добросовестности.

Статья имеет важное теоретическое и практическое значение для повышения качества и достоверности научных работ молодых исследователей, студентов и преподавателей.

Ключевые слова: плагиат, научная добросовестность, авторское право, антиплагиатная система, исследования, этические стандарты.

Tojiddinova Dildora Bohodirjon qizi

Master's student of Namangan State University

PLAGIARISM: SCIENTIFIC HONESTY

Annotation: This article extensively covers the issue of plagiarism in scientific research, its essence, types, and impact on scientific integrity. The author emphasizes that plagiarism is a serious problem not only from an ethical but also from a legal perspective. The article provides information on measures to combat plagiarism in the higher education system, the importance of anti-plagiarism programs. It also substantiates the need to form a scientific culture of researchers, use sources correctly, and adhere to the principles of scientific integrity. The article is of significant theoretical and practical importance in improving the quality and reliability of scientific work for young researchers, students, and academics.

Keywords: plagiarism, scientific integrity, copyright, anti-plagiarism system, research, ethical standards.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli axborot asrida ilmiy tadqiqotlar insoniyat taraqqiyotining eng muhim tayanchi hisoblanadi. Har yili dunyo bo'yicha millionlab

ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va izlanishlar e'lon qilinmoqda. Xalqaro ilmiy maydonda ilmiy halollik, mualliflik huquqini hurmat qilish va plagiatdan saqlanish kabi tamoyillar ilmiy faoliyatning eng asosiy mezoniga aylangan.

Jahon miqyosida ko'plab nufuzli universitetlar, masalan, Harvard, Oksford, MIT va boshqa ilmiy markazlar o'z ichki etik kodekslarida plagiatni qat'iy taqiqlaydi. UNESCO, Elsevier, IEEE kabi xalqaro tashkilotlar ham ilmiy halollikni himoya qilishni ilmiy nashr siyosatining ajralmas qismi sifatida belgilab qo'ygan. Bu tizimlar orqali mualliflarning ijodiy mehnati himoya qilinadi, ilm-fanning ishonchliligi va yangiligi saqlanadi.

Biroq axborot texnologiyalarining keng rivojlanishi bilan bir qatorda, ilmiy sohada plagiat holatlari ham ortib bormoqda. Internetdagi ochiq ma'lumotlar, elektron kutubxonalar va sun'iy intellekt yordamida matnlar yaratish imkoniyatlari ba'zi tadqiqotchilarni plagiat xavfiga olib kelmoqda. Shu bois bugungi kunda ilmiy halollik masalasi nafaqat mahalliy, balki global muammo sifatida ko'rilmogda.[6]

O'zbekiston ham bu borada jahon tajribasidan samarali foydalanib kelmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy ishlarni himoya qilish jarayonida antiplagiat tizimi joriy etilgan, ilmiy halollik qoidalari ishlab chiqilgan va tadqiqotchilarning mas'uliyatini oshirishga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Ilmiy tadqiqotlarda plagiat muammosi zamonaviy ilm-fanning dolzarb masalalaridan biridir. Bugungi kunda ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar plagiatni ilmning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida baholaydi. Masalan, Pecorari (2013) plagiatni "ilmiy halollikning buzilishi va mualliflik huquqiga tajovuz" deb ta'riflaydi. Turnitin (2020) esa plagiatni onlayn aniqlash tizimlari orqali ilmiy izlanishlarni nazorat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Bu fikrlarni Sharq mutafakkirlari qarashlari bilan solishtirsak, masalan, Abu Nasr Forobiy ilmning qadri faqat uni halol yo'l bilan egallashda ekanini ta'kidlab: "Ilm o'rganish – komillik yo'lidir, ammo ilm faqat halollik ila foyda keltiradi," – deydi. Bu fikr hozirgi zamon ilmiy halollik tamoyillariga to'la mos keladi. Abu Rayhon Beruniy

esa ilmiy haqiqatga erishishda yolgʻon va taqlidni qatʻiy inkor etib: “Haqiqat izlovchi yolgʻonga suyanmas,”– deb yozadi. Beruniy fikricha, ilmiy natija yolgʻon yoki birovdan oʻgʻirlangan boʻlsa, u ilm sifatida qabul qilinmaydi. Bu zamonaviy tadqiqotlarda keltirilgan plagiatning xavfli oqibatlari bilan hamohangdir. Ibn Sino ilmiy mehnatning shaxsiy masʼuliyatga bogʻliqligini taʼkidlarkan shunday deydi: “Oʻgʻirlangan fikr – ilm emas.”

Bu fikr zamonaviy ilmiy etikaga toʻla mos keladi. Pecorari (2013) bu jihatdan plagiatni “oʻzlashtirilgan fikrni oʻzini qilib koʻrsatish” deb talqin qiladi. Alisher Navoiy esa ilm va amal uygʻunligini asosiy mezon deb koʻrsatib: “Ilm amal ila ziynat topar,” deydi. Demak, ilm faqat halol mehnat asosida amaliy qiymatga ega boʻladi. Plagiat esa bu jarayonni buzadi, ilmni mazmunsizlantiradi.

Zamonaviy manbalarda ham shunga oʻxshash fikrlar mavjud. Park (2003) plagiatni ilmiy obroʻ, maʼnaviy tozalik va kasbiy masʼuliyatga eng katta tahdid sifatida koʻrsatadi. Bu holat Navoiy aytgan “ziynatsiz ilm” tushunchasi bilan uygʻunlashadi. UNESCO (2017) oʻz tavsiyalarida ilmiy halollikni ilmiy taraqqiyotning asosiy sharti sifatida belgilaydi. Xuddi shu kabi, Sharq mutafakkirlari — Navoiy, Beruniy, Ibn Sino, Forobiy — oʻz asarlarida kamtarinlik, halollik, adolat va toʻgʻrilikni ilmning ajralmas boʻlagi sifatida koʻrsatgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot ishining metodologik asosi Oʻzbekiston Respublikasi ilmiy tadqiqot sohasidagi davlat siyosati hamda Prezident qarorlarida belgilab berilgan ilmiy tamoyillarga tayanadi. Tadqiqot davomida plagiat va ilmiy halollikning mohiyatini hamda ilmiy tadqiqot jarayonidagi oʻrnini aniqlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlar qoʻllanildi.

Tahlil va natijalar

Ilmiy tadqiqotning mohiyati – bu yangi bilim yaratish, mavjud nazariyalarni boyitish va ilmiy muammolarga yangicha yondashuv taklif etishdir. Biroq soʻnggi yillarda axborot texnologiyalarining keng tarqalishi bilan bir qatorda, plagiat holatlarining ham koʻpayib borayotgani kuzatilmoqda. Internetda mavjud ochiq

manbalar, elektron kutubxonalar va ilmiy ma'lumotlar bazalari tadqiqotchilar uchun qulay imkoniyat yaratgani holda, ayrim hollarda ularni beparvolikka yoki mualliflik huquqini buzishga undamoqda.

Plagiat (lotincha plagiat – “o'g'irlangan”) — bu boshqa muallifning g'oyasi, matni, tadqiqoti yoki ilmiy natijasini o'z nomidan taqdim etish, ya'ni mualliflik huquqini buzish holatidir.

Plagiat — bu nafaqat axloqiy, balki huquqiy jihatdan ham javobgarlikka sabab bo'ladigan xatti-harakatdir. U asosan ilmiy, badiiy, texnik, jurnalistik va ta'lim sohalarida uchraydi.[1]

Ilmiy adabiyotlarda plagiat quyidagi turlarga bo'linadi:

1. To'liq plagiat — boshqa muallifning ishini (maqola, dissertatsiya, referat va h.k.) to'liq ko'chirib olish va o'z nomidan taqdim etish.
2. Qisman plagiat — matnning ayrim qismlarini, iboralarini yoki g'oyalarini manba ko'rsatmasdan ishlatish.
3. O'z-o'zini plagiat (self-plagiarism) — avval chop etilgan o'z ishlarini yangi tadqiqot sifatida qayta taqdim etish.
4. Tahririy plagiat — matnni biroz tahrir qilib, lekin g'oyani yoki tuzilmani o'zgartirmasdan ko'chirish.
5. Kooperativ (kollektiv) plagiat — jamoaviy ishda bir muallifning hissasini o'zlashtirish yoki boshqalarnikini o'z nomiga yozish.[2]

Agar ilmiy tadqiqot jarayonida plagiatdan haddan ziyod ko'p foydalanilsa va ilmiy halollikka e'tibor qaratilmasa quyidagi oqibatlar kelib chiqishi mumkin:

- Ilmiy ishonchga putur yetadi;
- Mualliflik huquqini buzgan shaxs obro'sini yo'qotadi;
- Oliy o'quv yurtlarida talabalar uchun intizomiy jazo, hatto o'qishdan chetlatish hollari kuzatiladi;
- Ilmiy daraja yoki unvonlar bekor qilinadi;
- Milliy ilm-fanning nufuziga zarar yetadi.

Jahon amaliyotida plagiat akademik jinoyat sifatida baholanadi. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiyada plagiat qilgan tadqiqotchi dissertatsiya yoki maqola yozish huquqidan mahrum bo'lishi, hatto ish joyidan bo'shatilishi mumkin.[3]

Agarda yuqorida aytib o'tilgan rivojlangan mamlakatlar singari O'zbekistonda ham ilmiy tadqiqot jarayonlarida plagiatga qo'l urgan tadqiqotchilarga turli xil jazo yoki jarimalar joriy etiladigan bo'lsa, asta sekinlik bilan mamlakatimizda keng tarqalgan plagiatdan qutilish osonroq bo'lar edi. Misol uchun Agar tadqiqotchi o'zining dissertatsiya ishida plagiatning istalgan turidan foydalansa, unga nisbatan bir necha yillik dissertatsiya yozishdan mahrum qilish, maqolalarini top etishni ta'qiqlash, ish joyidan bo'shatilish, maqomlarini olib tashlash yoki umuman ilmiy tadqiqot qilishni ta'qiqlash kabi qat'iy ta'qiqlar qo'yilsa, hech bir tadqiqotchi plagiatga yuzmanmaydi, to'g'rirog'i foydalanishdan qochadi. Bu jazolar judayam og'ir bo'lib tuyulishi mumkin, ammo bu orqali biz sifatli tadqiqotchilarni ko'paytirishimiz, ishonchli ma'lumotlarni yaratishimiz, turli yangiliklar qilishimiz mumkin bo'ladi.

Ilmiy halollik — bu ilmiy faoliyatda haqiqatga sodiqlik, plagiatdan tiyilish, ma'lumotlarni soxtalashtirmaslik, mualliflik huquqiga hurmat, shaffoflik va mas'uliyat tamoyillariga amal qilishdir. Bu tushuncha quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Ilmiy halollikning asosiy tamoyillari:

1. Plagiatdan qochish. -Boshqaning fikrini o'ziniki deb ko'rsatmaslik
2. To'g'ri iqtibos keltirish. – Manbalarni ko'rsatish, adabiyotga hurmat
3. Ma'lumotlarni soxtalashtirmaslik. – Uydirma statistika, yolg'on faktlardan voz kechish
4. Intellektual mulkka hurmat. – Mualliflik huquqini buzmaslik
5. Adolatli ilmiy baholash. – O'zi yoqtirgan yoki yoqtirmagan tadqiqotchiga nisbatan xolislik.
6. O'z mehnatiga sodiqlik[6]

Plagiat nafaqat ilmiy axloqqa zid, balki tadqiqot natijalarining ishonchliligiga ham putur yetkazadi. Bu holat ilmiy hamjamiyatda ishonchsizlik, mualliflik nizolari va

adabiy hamda ilmiy merosning qadrsizlanishiga sabab bo'лади. Shu bois, butun dunyoda ilmiy halollikni ta'minlash maqsadida plagiatni aniqlash tizimlari keng qo'llanilmoqda. Misol uchun: bugungi kunda ko'plab davlatlar plagiatni aniqlash tizimlari va ilmiy halollik siyosatlarini joriy etgan eng mashhur dasturlar: Turnitin (AQSh), iThenticate (xalqaro ilmiy jurnallar uchun), Antiplagiat.uz (O'zbekiston uchun milliy tizim) [4]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq, barcha magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari himoyasidan oldin antiplagiat tekshiruvdan o'tishi shart. Bu ilmiy natijalarning asl va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.[7]

Xulosa

Agarda har bir tadqiqotchi ilmiy tadqiqotini yoritish mobaynida foydalangan har bir manbaani to'liq ko'rsatib o'tsa, o'z fikrini mustqil tahlil va tahliliy yozuv orqali ifodalasa, ilmiy rahbar yoki moharrir ko'rsatmalariga rioya qilsa, o'zi mustaqil ravishda plagiat dasturlaridan foydalanib o'zini – o'zi tekshirib borsa, tadqiqoti davomida ilmiy halollikni yuqori o'ringa qo'ysa. O'ylaymanki yuqorida aytib o'tilgan oqibatlar yuz bermaydi. Tadqiqotchi uchun ham foydalanuvchilar uchun ham foydali manbaa yoki yangilik yaratiladi.

Ilmiy tadqiqotda plagiatga yo'l qo'yish – ilmiy halollik, ijodkorlik va ishonchlilik tamoyillariga zid harakatdir. Har bir tadqiqotchi o'z ishini asl muallifi bo'lishi, ilmiy natijalarni mustaqil tahlil va izlanishlar asosida yaratishi lozim. Plagiatdan saqlanish, manbaalardan to'g'ri foydalanish va mualliflik huquqiga hurmat bilan yondashish nafaqat shaxsiy, balki milliy ilm-fan taraqqiyotining ham kafolatidir. Shu sababli, har bir ilmiy ishda “ ilmiy halollik – muvaffaqiyat kaliti” tamoyiliga amal qilish zarur. Ilmiy halollikni saqlash — bu nafaqat shaxsiy, balki milliy va global ilm-fan taraqqiyotining kafolatidir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Buran, J. (2018). Academic Integrity and Plagiarism in Research. London: Routledge.

2. Pecorari, D. (2013). Academic Writing and Plagiarism: A Linguistic Analysis. London: Bloomsbury Academic.
3. Park, C. (2003). In Other (People's) Words: Plagiarism by University Students – Literature and Lessons. *Assessment & Evaluation in Higher Education*, 28(5), 471–488.
4. Turnitin Official Website. (2020). Plagiarism Detection and Academic Integrity.
5. Antiplagiat.uz (O'zbekiston Respublikasi Milliy tizimi, 2023).
6. UNESCO. (2017). Recommendation on Open Educational Resources and Academic Integrity. Paris: UNESCO Publishing.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. (2022). Ilmiy ishlarni antiplagiat tizimida tekshirish tartibi. Tashkent.
8. Forobiy, — Fozil odamlar shahri. Toshkent: Fan, 1993.
9. Beruniy, — Ал-Осар ал-бакия (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar). Toshkent: Fan, 1968.
10. Ibn Sino. — Donishnoma. Toshkent: Fan, 1980.
11. A.Navoiy — Mahbub ul-qulub. Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot, 1983.